

PUDRAT SHARTNOMASI № 12

«6» aprel 2022 y.

Olot tumani

“Qoraqo‘l Doniyor Montaj” MCHJ keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi. O‘zining ustavi asosida ish yurituvchi rahbari I.D.Bekmurodov nomidan, bir tomondan va Olot tuman Madaniyat bo‘limi keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, o‘zining Nizomi asosida ish yurituvchi rahbar B.Zaripov nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1.“Pudratchi” ushbu shartnoma bo‘yicha tuzilgan smeta loyixa hujjatlariga asosan qurilish ishlarini “Buyurtmachi”ning buyurtmasi asosida Olot tuman Chandir madaniyat markazi ishlarini bajarishni, “Buyurtmachi” esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to‘loymi amalga oshirishni o‘z zimmalariga oladilar.

Ushbu shartnomaning umumiy summasi tuzilgan smeta loyixa hujjatlaridan kelib chiqib 90 351 642 (To‘qson million uch yuz ellik bir ming olti yuz qirq ikki so‘m) so‘mni tashkil etadi.

2. SHARTNOMA BO‘YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1. “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan ta‘mirlash ishlarining qiymati 90 351 642 (To‘qson million uch yuz ellik bir ming olti yuz qirq ikki so‘m) so‘mni tashkil etadi.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagagi 594-sonli qaroriga asosan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning byudjet mablag‘lari hisobiga tuziladigan shartnomalarida, qoidaga ko‘ra, 15 foiz miqdorida oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan.

3. TA‘MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BUYICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1.Ta‘mirlash ishlarining boshlanishi “6” aprel 2022 yil.

3.2.Ta‘mirlash ishlarining tugashi vaqtি “30” aprel 2022 yil.

4. TO‘LOV SHARTI VA TARTIBI

4.1.Ta‘mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 3.2. bandida ko‘rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

4.2.Shartnomadagi avansni “Pudratchi” olgandan so‘ng ta‘mirlash ishlarini boshlaydi.

4.3.“Buyurtmachi” tomonidan ta‘mirlash ishlarini bajarish davrida “Pudratchi”ga o‘zi tomonidan harid qilingan ta‘mirlash materiallarini taqdim qilishi mumkin.

4.4.Ta‘mirlashni to‘xtab qolganligi uchun sababchi bo‘lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

4.5.Ta‘mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so‘ng ta‘mirlash ishlari tamom bo‘lgan deb hisoblanadi.

5.PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

5.1.Shartnoma bahosi 90351642 (To‘qson million uch yuz ellik bir ming olti yuz qirq ikki so‘m) so‘mni tashkil etadi. bo‘lgan ta‘mirlash ishlari yuqorida kelishilgan muddatda tugatish va foydalanishga topshirish.

5.2.Maxsus ta‘mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qiladi.

5.3.Har haftaning dushanba kunida joriy haftada bajarilgan ta‘mirlash montaj ishlari to‘g‘risidagi tegishli hujjatlarni “Buyurtmachi”ga taqdim qilishi shart. Agar ta‘mirlash mazkur shartnomada ko‘rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to‘laydi:

Buyurtmachi tomonidan obyektni o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha majburiyatlar buzilgan bo‘lsa Pudratchi

Buyurtmachiga muddati o‘tkazib borilgan har bir kun uchun majburiatlarning bajarilmagan qismining 0,2 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Jarima sanksiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da‘vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to‘lanishi shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag‘ doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to‘g‘risida 2-sonli dalolatnomani tuzadi..

6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

- 6.1. SHartnomada kursatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, «Buyurtmachi» maxsus hisob-raqamidan xar bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0,04% mikdorida «Pudratchiga» jarima to'laydi.
- 6.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.
- 6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofik 2-sonli dalolatnomani «Pudratchi» bilan birgalikda tuzadi

7.TOMONLAR O'RTASIDA SHARTNOMAVIY NIZOLARNI HAL ETISH

7.1.Barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishi; Loyiha hujjatlariga va qurilish me'yorlariga , qoidalari va texnika shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

O'z tomonidan qurilish (ta'mirlash) uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar ,konstruksiya va tizimlar sifatini ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalariga ,davlat standartlariga hamda texnik shartkarga muvofiqligini;

Ishlarni qabul qilish va foydalanish kafolatli davri aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni ;

Ob'ektdan foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalari muvofiqliginin kafolatlaydi;

Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari ,asbob – uskunalar,materiellardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan **2022 yil 30 aprel** kuniga qadar etib belgilanadi.

Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib ,ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa , u holda kafolat muddati nuqsonlar bartaraf etish davrida uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasi qayd etiladi.

Agar Pudratchi belgilangan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni , kamchiliklarni dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa , u holda Buyurtmachi mazkur dalolatnomaning 4-bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushib qolish huquqiga ega.

Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda , ularni tekshirib chiqish "davlatxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishni istisno etmaydi.

Ushbu shartnoma asosida kelib chiqadigan har qanday nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliklari talablariga asosan xo'jalik sudlarida hal etiladi.

8.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

- 8.1 Mazkur shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin qonuniy kuchga kiradi hamda 2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.
- 8.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega bo'lib hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxdadan beriladi.
- 8.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
 - tomonlarning kelishuviga muvofiq;
 - O'z.R. qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda;
 - Fors-major holatlarida.

9. SHARTNOMANING QONUNIY KUCHGA KIRISHI

- 9.1. Ushbu shartnoma **2014** yil 1 yanvardan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 122-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tizimi byudjetlariining g'azna ijrosi qoidalari" (2016 yil

22 dekabrda 2850-son hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldag'i 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan byudjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olinishi shartligi va faqat u amalga oshirilgandan keyin kuchga kirishi nazarda tutilgan

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"PUDRATCHI"

"Qorako'l Doniyor Montaj" MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Qorako'l tuman

Tel./faks: 992118525

h/v: 20208000900710282001

Bank nomi: Milliy bank Qorako'l filali bank

MFO: 00910 STIR: 304542192

Rahbar: I.D. Bekmurozov.



(imzo)

"BUYURTMACHI"

Olot tuman Madaniyat bo'limi

(byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Olot t. Bunyodkor kuchasi

Tel./faks: 93-968-31-03

sh/hv*: 100022860062047082310056002
byudjetdan mablag' oluvchi STIRi: 201365663

OKONX: 97600

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Olot tumani bo'yicha
G'aznachilik bulinmasi
G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent shaxri

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919



B.Zaripov

(imzo)

M.O.

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma
2. Loyihaning nomi.

“Qorako‘l Doniyor Montaj” MCHJ va Olot tuman Madaniyat bo‘limi o‘rtasida 90 351 642 (To‘qson million uch yuz ellik bir ming olti yuz qirq ikki) so‘mlik Olot tuman Chandir madaniyat markazini joriy ta’mirlash to’g’risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot.

Shartnoma loyihasi “Qorako‘l Doniyor Montaj” MCHJ va Olot tuman Madaniyat bo‘limi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun 12.04.2022 yilda ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Olot tuman yuridik xizmat
ko’rsatish markazi bosh yuristkonsul’ti**



**T.M.Turayev
2022 yil 13 aprel**